


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

Toshkent - 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 7 »
08 dagi 344 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

1. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 71010101 – *Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish – turizm sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi turistik korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, turizm sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, mutaxassislikka oid kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarning taklif va talablaridan kelib chiqqan holda magistrarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari;
- iqtisodiyot vazirligi tizimi tashkilotlari;

- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi hamda uning viloyatlardagi hududiy boshqarmalari;

- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi o'quv jarayonlari;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari;

- sohaning turli mulkchilik shakli va biznes tashkilotlari;

- mehmonxona xo'jaligining asosiy va qo'shimcha xizmatlarini amalga oshirish jarayonlari;

- mehmonxona xo'jaligi xizmatlari sifatini boshqarish tizimi;

- mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- mehmonxona xo'jaligidagi barcha faoliyat turlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

- ilmiy tadqiqot jarayonlari.

- kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarining xodimlar va ish haqini tashkil etish bo'limlari.

1.2.3. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;

- pedagogik faoliyat;

- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat;

- hisob, tahlil va nazorat faoliyati;

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- fundamental, amaliy, innovatsion loyihalardagi ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini ilmiy nashrlarda chop etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:

- davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- iqtisodiyot tarmoq va sohasining miqdor va sifat me'zonlari, iqtisodiy tizim va ob'ektlar chegaraviy hamda kritik holatining indikatorlarini aniqlash;

- barqaror iqtisodiy rivojlanish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarni ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

- iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish;

- O'zbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makro darajada sodir bo'ladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni harakterlaydigan turizm sohasiga oid iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, iqtisodiy rivojlanishga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

- byudjet tizimi va byudjet parametrlari, byudjetdan tashqari turli jamg'armalarning shakllanishi hamda bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslaridan samarali foydalanish choralarini ko'rish;

- moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy turistik tashkilot va korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- turizm sohasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish va boshqarish;

- fan va texnika yutuqlarini turizm sohasidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoniga tatbiq etish;

- turizm sohasida iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- amaliy faoliyatda turizm sohasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish muhitini takomillashtirish;

- turistik korxona va ularning alohida bo'linmalarini tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, turizm sohasiga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy rivojlanish sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- turizm sohasida shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- turizm sohasida korxonalarning tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

- turistik korxonalarda yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil etish.

2. 71010101 – Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish mutaxassisligi bo‘yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o‘z faoliyatida me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- turizm sohasida ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, turizmga oid ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- davlat va nodavlat turizm tashkilotlari tomonidan e‘lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lish;
- xizmat ko‘rsatish sohasida me‘yoriy huquqiy hujjatlardan foydalanish;
- mehmonxona xo‘jaligida xizmat ko‘rsatish jarayonlari va servisining bajarilish sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo‘llash;
- ilg‘or texnologik jarayonlarni va ilmiy asoslangan tizimlarni qo‘llash va tavsiyanomalar berish;
- mehmonxona xo‘jaligida yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- turizm sohasidagi loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo‘yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- turizm sohasida iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash, ularga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilish;

- turizm sohasida moliyaviy, iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, sohada yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

- turizm sohasiga oid loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- turizmga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

- turizm sohasida me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazishni bilish.

2.3. Umumiy va kasbiy komponentlarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritilgan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga mo'ljallangan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Iqtisodchi (mehmonxona xo'jaligi bo'yicha tadqiqotchi, pedagog).

2.3.2. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlari	600	20
Ilmiy faoliyat	1620	54

2.3.3. 71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITM1106	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	180	6	1
1.02	XKSR1106	Xizmat ko'rsatish sohasida re-jalashtirish	180	6	1
1.03	TXB11208	Turizm xizmatlar bozori	240	8	1,2
1.04	TGAT11210	Turizmda geoaxborot tizimlari	300	10	1,2
1.05	XMZT1204	Xalqaro mehmonxona zanjirlari tajribasi	120	4	2
1.06	MIMT1306	Mehmondo'stlik industriyasida mehnatni tashkil etish	180	6	3
1.07	MO'M1306	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	3
2.00		Tanlov fanlari	600	20	1,2,3

2.00		<i>Tanlov fanlari (4 ta fan)</i>	600	20	1,2,3
		Ilmiy faoliyat	1620	54	
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
		Ilmiy pedagogik ish	360	12	1,2,3
		Ilmiy amaliyot (stajirovka)	180	6	4
		Hammasi	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, mutaxassislik, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, turizm xizmat ko'rsatish, turizm innovatsion texnologiyalar, turizm ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, turistik mahsulot, tavakkalchilik, raqobat, raqobatbardoshlik, turizm tarmoqlari, baholash, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, turizm tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, turizm loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, raqamli iqtisodiyot, kredit-modul tizimi, turizm zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, mehmonxona, xalqaro mehmonxona zanjirlari, ixtimomlashgan mehmonxonalar, turizm geoaxborot tizimlari, turizm sohasi, mehmondo'stlik industriyasi, xizmat ko'rsatish sohasida rejalashtirish, joylashtirish vositalari.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Rektor  **M. Po'latov**

2023 yil « _____ » _____



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**


Direktor  **Sh. Yakubov**

2023 yil « _____ » _____

M.O'.



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti


Rektor  **K. Sharipov**

2023 yil « _____ » _____

M.O'.



**Samarqand viloyati
Madaniyat va turizm boshqarmasi**


Boshqarma boshlig'i  **Sh. Eshonqulov**

2023 yil « _____ » _____

M.O'.



"Billuri Sitora" mehmonxonasi


Direktor  **B. Ergasheva**

2023 yil « _____ » _____

M.O'.



"Dinara tour service" turistik firmasi

Direktor  **F. Muhammadjonov**

2023 yil « _____ » _____

M.O'.



Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasidagi

KELISHUV DALOLATNOMASI

Samarqand sh.

“_____” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.Sharipov, Samarqand viloyati Madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig'i Sh.Eshonqulov, “Billuri Sitara” mehmonxonasi direktori B.Ergasheva, “Dinara tour service” turistik firmasi direktori F.Muhammadjonov hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori M.E.Po'latov birgalikda SamISIda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasining mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

1. *71010101 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish magistratura mutaxassisligi.*

Malaka talablari hamda o'quv rejaning ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli, 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi” to'g'risidagi PF-27-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi “Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-200-son Qarori, 2023-yil 5-iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi F-31-son Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-son buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib shuningdek, xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Toshkent davlat
universiteti rektori**



K.Sharipov

**Samarqand viloyati Madaniyat va
turizm boshqarmasi boshlig'i**



Sh.Eshonqulov

**"Billuri Sitora" mehmonxonasi
direktori**



B.Ergasheva

**"Dinara tour service" turistik
firmasi direktori**



F.Muhammadjonov

**Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti rektori**



M.E.Po'latov